

## SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIVASI

**Sadikova N.O.**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

Ushbu maqolada sug‘urta kompaniyalarining mablag‘larini qanday samarali boshqarishi haqida batafsil tahlil keltirilgan. Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorlikka erishish uchun mablag‘larni diversifikatsiyalash, risklarni boshqarish va innovatsion strategiyalarni qo‘llashi muhimligi ta’kidlangan. Yillar kesimida kompaniyalarning daromadlari va investitsion faoliyati natijalari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar ko‘rsatib berilgan. Jadval va diagrammalar orqali 2020–2024 yillarda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘ishi aniq tasvirlangan.

В этой статье представлен подробный анализ того, как страховые компании эффективно управляют своими финансами. Подчеркивается важность того, чтобы страховые компании применяли стратегии диверсификации фондов, управления рисками и инноваций для достижения финансовой стабильности. На рубеже лет анализируются доходы и результаты инвестиционной деятельности компаний

с указанием основных направлений повышения их эффективности. С помощью графиков и диаграмм наглядно иллюстрируется рост финансовых показателей страховых компаний в 2020-2024 годах.

This article provides a detailed analysis of how insurance companies effectively manage their finances. The importance of insurance companies applying strategies of fund diversification, risk management and innovation to achieve financial stability is emphasized. At the turn of the years, the income and results of investment activities of companies are analyzed, indicating the main directions for improving their efficiency. Graphs and diagrams clearly illustrate the growth of financial indicators of insurance companies in 2020-2024.

**Tayanch so‘zlar:** Risk, sug‘urta, sug‘urta kompaniyasi, sug‘urta shartnomasi, sug‘urta turlari, sug‘urta portfeli, moliya, statistika.

**Ключевые слова:** Риск, страхование, страховая компания, страховые договоры, страхования вида, страховой портфель, финансы, статистика.

**Keywords:** Risk, insurance, insurance company, insurance contract, types of insurance, insurance portfolio, finance, statistics.

### **Kirish**

Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy xizmatlar bozorida muhim o‘rin egallaydi. Ularning asosiy vazifasi mijozlarning moliyaviy xavflarini boshqarish va ularni

kutilmagan zarar yoki yo‘qotishlardan himoya qilishdir. Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirish uchun o‘z mablag‘larini samarali boshqarishi zarur. Ushbu maqolada sug‘urta kompaniyalari pullarini qanday qilib samarali ishlatishlari, risklarni kamaytirish va daromadni oshirish uchun qaysi strategiyalarni qo‘llashlari haqida so‘z yuritamiz.

Sug‘urta kompaniyalari o‘z mablag‘larini qonunda taqiqlanmagan faoliyat orqali ko‘paytirib borishlari mumkinligi haqida “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonunda shunday deyilgan: Sug‘urta majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlash uchun sug‘urtalovchilar (qayta sug‘urtalovchilar) vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadigan tartibda va shartlarda milliy valyutada ham, chet el valyutasida ham to‘langan sug‘urta mukofotlaridan sug‘urta zaxiralarini shakllantiradi va joylashtiradi.

Sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) o‘z sug‘urta zaxiralariga muvofiq bo‘lgan aktivlari olib qo‘yilmaydi.<sup>1</sup>

Sug‘urta fondlarining moliyaviy salohiyati tadbirkorlik risklarini pasaytiradigan va jamg‘armalar hamda investitsiyalar o‘rishini ta‘minlaydigan pul sug‘urta resurslarini shakllantirish bo‘yicha sug‘urtaviy moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlar yig‘indisining amalga oshirilishi orqali namoyon bo‘ladi.<sup>2</sup>

### **Adabiyotlar sharhi**

Risklarni boshqarish jarayoni taxminan yetmish yil avvalga borib taqaladi, ammo bu yo‘nalishni tatbiq etishning ba‘zi ko‘rinishlari qadimgi Rim va Xitoyda qilinganligini tarixiy manbalarda ko‘rishimiz mumkin. Menejmentning alohida tarmog‘i sifatida bu sohaning rivojlanishi ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Chunki dunyodagi global geosiyosiy rivojlanishning beqarorligi korxonalarda turli vaziyatlar va holatlarni hisobga olish kerakligini ko‘rsatardi faol rivojlanish, chunki global geosiyosiy vaziyat juda beqaror va korxonalar yedi. Shunday qilib 1950 - yillarda AQShda menejmentning maxsus yo‘nalishi – “risk menejmenti” shakllana boshladi. Bu atama 1955 yilda “Temple” universitetining sug‘urta professori Ueyn Snayder tomonidan taklif qilingan. Alohida “Risklarni boshqarish va tijorat” deb nomlagan o‘quv qo‘llanmasi esa 1963 yilda R. Mer va B. Xedjes muallifligida dunyo yuzini ko‘rdi. 1995 yildan boshlab esa birin ketin risklarni boshqarish bo‘yicha milliy standartlar amaliyotga kiritila boshlandi. Ilk standartlar Avstraliya va Yangi Zelandiyada joriy etilgan.

Harvard Business Review uzoq yillik tarixga ega biznes olamini yorituvchi jurnal bo‘lib 2022 yilda mualliflarining eng yaxshi maqolalari to‘plamini Alpina Pablisher nashriyoti tomonidan chop ettirdi. Unda ko‘zga ko‘ringan tadqiqotchi olimlar Girotra Karan, Kaplan Robert Stiven, Mayks Anett, Nassim Taleb, Kondoliz Rayslarning mavjud. Bu to‘plam orqali biz xavf toifalari va xatarlarni boshqarish jarayonlarini

<sup>1</sup> Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun, 49- modda

<sup>2</sup> Malikov T.S “Moliya: xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi” “iqtisod-moliya” 2010

amalga oshirish haqida bilib olishimiz mumkin undan tashqari yangi innovatsiyalar uchun noaniqlikdan qanday foydalanishni va raqobatdoshlardan ustunlikka erishish uchun umumiy prognoz, xatoliklaridan qochish yo‘nalishlarini o‘rganamiz.

Bu ma’lumotlar risklarni boshqarishning samarali strategiyasini yaratishga va kelajakdagi muammolarga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi.

2022 yilda chop etilgan professor T.S. Malikovning “Moliya: amaliy jihatlar” o‘quv qo‘llanmasida ham amaliy moliyaning fundamental asoslari, moliyaviy tizim, moliyaviy hisobotlar, vaqt (davr) va pul, inson hayotida moliyaviy rejalashtirish va investitsion loyihalar moliyaviy tahlili bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarning amaliy jihatlarini o‘zbek iqtisodiy adabiyotida moliyaviy nuqtai-nazardan ilk bora o‘ziga xos tarzda aks ettirilgan.<sup>3</sup> Qo‘llanma iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari-ning talabalari, magistrantlari, ilmiy xodimlari, professor-o‘qituvchilari va amaliy moliya masalalari bilan qiziquvchi barcha o‘quvchilarga mo‘ljallangan. Kitobning 25-bobi Moliya va risklarga bag‘ishlangan bo‘lib: risk tushunchasiga, tasnifiga, foydaning qanday qilib riskga bog‘liqligiga, riskning tarmoqlardagi ko‘rinishlariga alohida to‘xtalangan.

Chernova Galina Vasilevna - iqtisod fanlari doktori, Sankt-Peterburg Davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti xatarlarni boshqarish va sug‘urta kafedrasini professori, Rossiya Federatsiyasining xizmat ko‘rsatgan Oliy ta’lim xodimi tomonidan tahrirlangan va 20 ga yaqin mualliflarni jamlagan, 2014 yilda chop etilgan “Страхование

и управление рисками” kitobida ham ko‘pgina ma’lumotlar oddiy va tushunarli qilib yoritilgan. Kitob bakalavr yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib unda risk, risklarni boshqarish va sug‘urta, sug‘urta operatsiyalari, sug‘urta mahsuloti kabi asosiy mavzulari yoritilgan, bundan tashqari o‘zaro sug‘urta kompaniyalari, birgalikda sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash, sug‘urta tashkilotini moliyalashtirish, moliyaviy barqarorlik va sug‘urta tashkilotining to‘lov qobiliyati, investitsiya sug‘urta tashkilotining faoliyati, shaxsiy sug‘urta, tibbiy, baxtsiz hodisalar va kasalliklarni sug‘urtalash, hayot sug‘urtasi kabi tushunchalarga ta’rif berilgan Asosiy va maxsus kompleks mulkni sug‘urtalash turlari, shuningdek dolzarb muammolar, sug‘urta bozorining ishlashi va tartibga solinishi, bu sohadagi so‘nggi o‘zgarishlar faoliyati aks ettirilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha bilimlar pulni qanday boshqarish – ishlab topish va xarj qilish, asrab-avaylab jamg‘arish (ko‘paytirish) va investitsiyalashtirish, moliyaviy risk va firibgarliklardan himoya qilish, budjet va shaxsiy moliyaviy rejani tuzish – kerakligini tushunishga yordam beradi. U yoki bu hayotiy vaziyatlarda

---

<sup>3</sup> Маликов Т.С. “МОЛИЯ: АМАЛИЙ ЖИХАТЛАР” «Nihol print» ОК, 2022й.

moliyaviy instrumentlar (depozit (omonat)lar, to‘lov kartalari, kreditlar va h.k.lar) qanday qilib yordam berishi mumkinligini anglashga, afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda moliyaviy takliflarni tanqidiy baholashga va o‘zlarining shaxsiy maqsadlariga erishish uchun ongli tanlovni amalga oshirishga o‘rgatadi

Sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyatini moliyalashtirish uchun bir nechta asosiy manbalarga ega:

1. Sug‘urta mukofotlari: Bu kompaniyaga mijozlar tomonidan to‘lanadigan badallardir. Ushbu mablag‘ kompaniyaning asosiy daromad manbai hisoblanadi.

2. Sarmoyaviy daromadlar: Sug‘urta kompaniyalari yig‘ilgan mablag‘larni turli investitsion loyihalarga joylashtiradi, bu orqali qo‘shimcha daromad olishadi.

3. Sug‘urta rezervlari: Kompaniyalar kelajakdagi to‘lov majburiyatlarini qoplash uchun maxsus mablag‘lar jamg‘armasini shakllantiradi.

Quyida mablag‘larni samarali boshqarish strategiyalarini ko‘rib chiqamiz, ulardan birinchisi: Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish

Sug‘urta kompaniyalari o‘z mablag‘larini faqat bir turdagi aktivlarga emas, balki turli investitsion vositalarga sarflash orqali xavflarni kamaytirishi mumkin. Masalan:

- Davlat obligatsiyalari: Past xavfli va barqaror daromad manbai sifatida.
- Ko‘chmas mulk: Barqaror investitsiya sifatida uzoq muddatli daromad keltiradi.
- Aksiyalar: Yuqori rentabellik keltirishi mumkin, ammo yuqori xavf bilan birga.

Diversifikatsiya strategiyasi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshiradi va bir bozordagi salbiy o‘zgarishlar boshqa investitsion vositalardan olinadigan foyda bilan muvozanatlashadi.

Mablag‘larni samarali boshqarishning eng ommabop turi bu risklarni boshqarish. Sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyati davomida katta miqdordagi moliyaviy risklarga duch keladi. Ushbu risklarni minimallashtirish uchun barcha sug‘urta kompaniyalari quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rib kelmoqdalar:

- Qayta sug‘urtalash: Yirik risklarni boshqa sug‘urta kompaniyalariga topshirish orqali xavflarni taqsimlash. Mamlakatimizda faoliyat olib boruvchi ko‘pgina kompaniyalar qayta sug‘urtalash turini tanlaydilar. Statistik ma’lumotlarga tayanib shuni aytishimiz mumkinki qayta sug‘urtalash nafaqat mamlakatimizda balki jahonda xam rivojlangan. Quyida keltirilayotkan jadvalda mamlakatimizda faoliyat olib borayotkan sug‘urta kompaniyalarining chet ellik xamkorlar bilan birgalikdagi qayta sug‘urtalash shartnomalarining solishtirma ko‘rsatkichlari 2023 va 2024 – yil yarim yillik kesimida keltirilgan.

1- jadval<sup>4</sup>

**Chet el sugʻurta tashkilotlarining qayta sugʻurtalash mukofotlari hajmi:**

mln. oʻm

| Koʻrsatkichlar                      | 30 09 23    |                                            | 30 09 24    |                                            | Oʻzgarish, % |
|-------------------------------------|-------------|--------------------------------------------|-------------|--------------------------------------------|--------------|
|                                     | mln. soʻmda | yalpi sugʻurta mukofotlariga nisbatan % da | mln. soʻmda | yalpi sugʻurta mukofotlariga nisbatan % da |              |
| umumiy sugʻurta sohasi              |             |                                            |             |                                            |              |
| Qayta sugʻurtalashga berilgan       | 883 149     | 16%                                        | 1 725 756   | 25%                                        | +95,4%       |
| Qayta sugʻurtalashga qabul qilingan | 926 310     | 16%                                        | 967 802     | 14%                                        | +4,5%        |
| hayotni sugʻurta qilish sohasi      |             |                                            |             |                                            |              |
| Qayta sugʻurtalashga berilgan       | 473         | 0%                                         | 413         | 0%                                         | -12,6%       |
| Qayta sugʻurtalashga qabul qilingan | 1 356       | 1%                                         | -           | 0%                                         | -100,0%      |

**Chet el sugʻurta tashkilotlarining qayta sugʻurtalash majburiyatlari hajmi:**

| Koʻrsatkichlar                         | 30 09 23       |                                                            | 30 09 24       |                                                            | Oʻzgari<br>sh, % |
|----------------------------------------|----------------|------------------------------------------------------------|----------------|------------------------------------------------------------|------------------|
|                                        | mln.<br>soʻmda | yalpi<br>sugʻurta<br>mukofotlar<br>iga<br>nisbatan %<br>da | mln.<br>soʻmda | yalpi<br>sugʻurta<br>mukofotlar<br>iga<br>nisbatan %<br>da |                  |
| umumiy sugʻurta sohasi                 |                |                                                            |                |                                                            |                  |
| Qayta sugʻurtalashga<br>berilgan       | 708 531<br>032 | 32%                                                        | 727 203<br>996 | 32%                                                        | +2,6%            |
| Qayta sugʻurtalashga qabul<br>qilingan | 147 145<br>805 | 7%                                                         | 167 416<br>238 | 7%                                                         | +13,8%           |
| hayotni sug`urta qilish sohasi         |                |                                                            |                |                                                            |                  |
| Qayta sugʻurtalashga<br>berilgan       | 1 566 148      | 281%                                                       | 147 271        | 1%                                                         | -90,6%           |
| Qayta sugʻurtalashga qabul<br>qilingan | 5 048 224      | 905%                                                       | -              | 0%                                                         | -100,0%          |

<sup>4</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi rasmiy sayti

- Analitik prognozlar: Zamonaviy texnologiyalar yordamida statistik ma'lumotlarni tahlil qilib, kelajakdagi zararlarni oldindan bashorat qilish. Barchamizga ma'lumki hozirgi kunda xar qanday soxada prognozlash anchayin osonlashgan. Sug'urta kompaniyalarida moliyani analitik prognozlash kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xavf-xatarlarni boshqarish va uzoq muddatli strategik qarorlarni qabul qilish uchun muhim jarayondir. Sug'urta kompaniyalari ko'plab omillarni tahlil qilib, kelajakdagi moliyaviy holatni prognoz qilishadi.

- Risk profilini aniqlash: Har bir mijozning moliyaviy holatini va xavf darajasini chuqur o'rganish lozim. Bu jarayon har bir mijozning moliyaviy holati, xavf darajasi va ehtimoliy to'lov talablarini baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon sug'urta mukofotlarini belgilash va xavf-xatarlarni samarali boshqarishda asosiy o'rin tutadi.

Xarajatlarni optimallashtirish, sug'urta kompaniyalari faoliyat samaradorligini oshirish uchun operatsion xarajatlarni kamaytirish zarur. Bu quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi

Avtomatlashtirish: Sug'urta jarayonlarini avtomatlashtirish orqali vaqt va resurslarni tejash. Sug'urta jarayonlarini avtomatlashtirish sug'urta kompaniyalarining samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni tezlashtirish uchun muhim qadamdir. Avtomatlashtirish jarayonini asosan mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirishimiz mumkin. Masalan: shartnoma tuzishda onlayn platformalar orqali sug'urta polislarini taklif qilish va avtomatik shartnoma tuzish. Hozirda taklif qilinayotgan xizmatlarning ko'plari kompaniya saytlari yoki to'lovni amalga oshira olish imkonini beruvchi ilovalar orqali ishlaydi.

Ma'lumot yig'ishni optimallashtirish: bu jarayon mijoz ma'lumotlarini to'plash, tahlil qilish va avtomatik ravishda qayta ishlashning tezlashishiga ko'maklashadi.

Botlar va virtual yordamchilar yaratish orqali. Masalan: mijozlarning savollariga javob berish va xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish. Bunday xizmatlarning mavjudligi mijozlar sonining oshishiga xizmat qilib qolmay, kompaniya imidjini yaratishga xizmat qiladi.

Barqarorlikning shartlaridan yana biri daromadni oshirish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Bunda bizga sug'urta xizmatlarining yangi turlarini joriy etish yordam beradi. Sug'urta kompaniyalari bozordagi talab va mijozlarning ehtiyojlariga mos ravishda yangi sug'urta mahsulotlarini yaratishi kerak. Masalan: hayot sug'urtasi: Ko'p mamlakatlarda ushbu xizmatga talab yuqori. Bu sug'urta mahsulotini axoliga tanitish, turli imtiyozlar, qo'shimcha xizmatlar taklif etish kerak. Tarmoqlarning rivojlanishi, elektron xizmatlar turning oshishi yana bir zamonaviy sug'urta mahsulotini ishlab chiqishga undaydi bu xam bo'lsa kiberxavfsizlik sug'urtasi. Barchamizga ma'lum bo'lgan raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, xuddi shunday raqamli xavfsizlik masalalarining dolzarbligini isbotlaydi. Mamlakatimizda uncha



rivojlanmagan, lekin juda foydali sug'urta turi bu tibbiy sug'urtadir. Pandemiya davri ushbu sug'urta xizmatidan foydalanganlar uchun manfaatli bo'ldi.

Mavjud mijozlar bazasi bilan cheklanib qolmay, kompaniyalar o'z mijozlar bazasini kengaytirishlari lozim. Bunda bizga marketing kompaniyalarini amalga oshirish yordam beradi. Ananaviy reklama berishdan cheklangan holda xozirgi kunda keng rivojlangan ijtimoiy tarmoqlardan, ya'ni inflyuenser yoki inflyuyenser (inglizcha – influence “ta'sir”) lardan foydalanish kompaniyaning yoki mahsulotning “egasiga” tezroq yetib borishini ta'minlaydi. Bunday insonlar fikri ko'p odamlar uchun muhim bo'lgan shaxs, "fikir yetakchisi" ko'pchilikning fikriga ta'sir qila oladigan shaxs; Odatda bu mashhur, o'z sohasining mutaxassisi, ijtimoiy tarmoqlarda - katta va sodiq auditoriyaga ega foydalanuvchi (blogger). Bu atama E. Katz va P. Lazarsfeld tomonidan "Shaxsiy ta'sir" kitobida kiritilgan “fikir yetakchisi” atamasiga yaqin.<sup>5</sup> O'zining professional iste'dodi bilan jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lgan insonlar, ular jamoat hayotining deyarli har qanday sohasiga (siyosat, ozchiliklarga munosabat, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va boshqalar) ta'sir qilishi mumkin.

Mijozlar sonining ortishiga sababchi omillardan yana biri imtiyozli xizmatlarning mavjudligi bo'ladi. Masalan: bonuslar, chegirmalar va boshqa rag'batlantiruvchi choralardan foydalanish. Daromadlar ko'payishida, moliyaviy barqarorlikning o'sishga asos bo'luvchi yana bir omil bu Hamkorlik xozirgi zamon tilida aytsak Kollaboratsiya (fran. collaboration “hamkorlik”) bu umumiy maqsadga erishish bo'lgan hamkorlik.

Bu bitta tashkilot ichida yoki turli kompaniyalar yoki turli sohalaridagi odamlar guruhlarida sodir bo'lishi mumkin. Hamkorlikning maqsadi bilim, tajriba va resurslarni birlashtirishdir

### **Xulosa**

Sug'urta kompaniyalari pullarini samarali boshqarishi ularning bozor barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Diversifikatsiya, xarajatlarni optimallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va risklarni boshqarish kabi strategiyalar kompaniyalarga muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Shu bilan birga, mijozlar ishonchini qozonish va yangi xizmatlarni joriy etish ham kompaniya daromadini oshirishda muhim o'rin tutadi. Sug'urta kompaniyalari o'z mablag'larini oqilona boshqarish orqali nafaqat o'z manfaatlarini, balki mijozlarining moliyaviy barqarorligini ham ta'minlaydi. Sug'urta kompaniyalari uchun moliyaviy resurslarni samarali boshqarish nafaqat ularning ichki barqarorligini, balki butun bozor tizimining rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonni to'g'ri tashkil etish orqali kompaniyalar o'z daromadlarini oshirish, xavflarni minimallashtirish va xizmat sifatini yaxshilash imkoniga ega bo'ladilar. Diversifikatsiya –xavflarni boshqarish va

<sup>5</sup> Katz E., Lazarsfeld P.F. Personal influence. The Part Played by People in the Flow of Mass Communications. N.Y.: Free Press, 1995.

daromad manbalarini kengaytirishning samarali vositasi. Sugʻurta kompaniyalari oʻz portfellarini bir nechta sugʻurta turiga taqsimlash orqali bozor tebranishlariga chidamli boʻlishlari mumkin. Bundan tashqari, turli investitsiya sohalariga sarmoya kiritish orqali daromad manbalarini barqarorlashtirishga erishadilar. Xarajatlarni optimallashtirish orqali kompaniyalar ortiqcha operatsion xarajatlarni kamaytirib, resurslardan yanada samarali foydalanadi. Tashkiliy jarayonlarni avtomatlashtirish, xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish va tejamkorlik siyosatini yuritish kompaniyalarning rentabelligini oshiradi. Yuqorida keltirganimizdek zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish sugʻurta sohasini yangi bosqichga olib chiqadi. Sunʼiy intellekt, blockchain va IoT kabi ilgʻor texnologiyalar xavflarni tahlil qilish, firibgarlikni aniqlash va jarayonlarni avtomatlashtirishda muhim rol oʻynaydi. Bu nafaqat xarajatlarni qisqartiradi, balki mijozlarga tezkor va sifatli xizmat koʻrsatishni ham taʼminlaydi.

Oxirgi nuqta sifatida, kompaniyalar yangi xizmatlarni joriy qilish orqali raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Innovatsion sugʻurta mahsulotlari, shaxsiylashtirilgan xizmatlar va raqamli platformalar orqali mijozlarning ehtiyojlarini qondirish kompaniyaning daromad bazasini kengaytiradi. Sugʻurta kompaniyalari oʻz mablagʻlarini oqilona boshqarish orqali nafaqat oʻz bizneslarini rivojlantiradi, balki mijozlarining moliyaviy barqarorligini taʼminlashda ham faol ishtirok etadi. Diversifikatsiya, xarajatlarni optimallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qoʻllash va xavflarni boshqarish kabi strategiyalar kompaniyalarning barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, mijozlar ishonchini qozonish va ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xizmatlarni taklif qilish kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun poydevor boʻlib xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat sugʻurta kompaniyalari, balki butun sugʻurta bozorining barqaror rivojlanishiga hissa qoʻshadi.

### **Adabiyotlar roʻyxati**

1. Oʻzbekiston Respublikasi “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonuni// Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son
2. Malikov T.S. “Moliya: amaliy jixatlar” Toshkent. “Nihol print” OK. 2022y.
3. Malikov T.S “Moliya: xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasi” “iqtisod-moliya” 2010y
4. Katz E., Lazarsfeld P.F. Personal influence. The Part Played by People in the Flow of Mass Communications. N.Y.: Free Press, 1995
5. [www.imda.uz](http://www.imda.uz) Moliya vazirligi xuzuridagi “Sugʻurta bozorini rivojlantirish agentligi”ning rasmiy sayti.
6. [www.napp.uz](http://www.napp.uz) Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi rasmiy sayti.
7. LEX.uz internet portali



8. Wikipedia.org
9. Jumaniyazov, I., & Qayumova, M. (2023). Fuqarolik ishtirokidagi “Tashabbusli byudjet” turlari va uni O‘zbekistonda qo‘llash dolzarbligi. *Science and Education*, 4(6), 853–859. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6101>
10. Жуманиязов, И. Т., & Садыкова, Н. О. (2023). Ўзбекистонда ва жаҳонда суверен фондлар инвестицион фаолияти. *Science and Education*, 4(6), 915–920. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6106>
11. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag‘laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo‘llari. *Science and Education*, 4(6), 881–887. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>
12. Inomjon, J., & Sarvar, A. (2023). SUVEREN FONDLAR FAOLIYATI VA ULARNING MOLİYAVIY MABLAG ‘LARINI SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 102-108.
13. Jumaniyazov, I. T., & Islomov, A. (2023). O ‘RTA MUDDATLI DAVR UCHUN FISKAL STRATEGIYANI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 121-127.
14. Jumaniyazov, I. T., & Abdurahmonov, Q. (2023). TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG‘ARMASINING BANKLAR FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 139-146.
15. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 128-138.
16. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboyev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. *Science and Education*, 4 (5), 1518-1523.
17. Turayevich, J. I., & Akmal o‘g‘li, S. M. (2023). INVESTITION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG‘ARMASINING O‘RNI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 147-157.
18. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
19. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China’s Sovereign Wealth Funds. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(1), 1–8.

20. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 1(2), 355-372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>
21. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(11), 71–76. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1477>
22. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). TAX RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 25, 123–134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>
23. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 104–114.
24. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BANKING INNOVATIONS IN THE COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. Academia Repository, 5(03), 31–37. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/662>
25. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. European Scholar Journal, 5(3), 5-8.
26. Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46–54.
27. Jumaniyazov Inomjon To'rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117–124.

28. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action-Fluctuation and Noise Letters, 2023
29. To‘raevich, J. I., Nazarbaevich, A. A., Qilichbayevich, S. M., & Babaev, S. B. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. *Global Scientific Review*, 26, 46-54.
30. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund’s expenditure on GDP growth. *Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.*
31. Oppog‘ov, J. A., & Jumaniyazov, I. T. (2024). Moliya tizimida g‘aznachilik faoliyatini rivojlanish istiqbollari. *Science and Education*, 5(5), 504–512.
32. Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). METHODOLOGICAL BASIS FOR FORECASTING THE TAX POTENTIAL OF THE RUSSIAN FEDERATION. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 27, 100–107.
33. Abdullaev, A. N., Jumaniyazov, I. T. R., Sabirov, M. Q., & Babaev, S. B. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PERSONAL INCOME TAX FORECASTING. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 28, 233-243.
34. ESG PRINCIPLES IN INVESTMENT PROJECTS FINANCED BY SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1096-1102.
35. THE SOCIAL IMPORTANCE OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1028-1034.
36. TARGETED PLANNING OF BUDGET EXPENDITURES AND IMPACT ON SOCIAL POLICY. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1442-1444.
37. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING AHAMIYATI. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1418-1422.
38. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1428-1432.
39. Xamro o‘g‘li, Y. R., & Turayevich, J. I. (2024). ISHSIZLIK DARAJASI, UNING TURLARI VA UNI BARQARORLASHTIRISHNING YOLLARI. *Ustozlar uchun*, 1(4), 767-771.